TARBIYACHINING BOLALAR RIVOJLANISHIDAGI ROLI

Muallif: Sobirova Marjona

TOSHKENT KIMYO XALQARO UNVERSITETI NAMANGAN FILALI

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida tarbiyachining o`rni, uning pedagogik faoliyati, bolalarning jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishiga ta`siri ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, tarbiyachining bolalar bilan ishlash jarayonidagi metodlari va zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi.

**Kalit so`zlar**: tarbiyachi, bola rivojlanishi, maktabgacha ta`lim, pedagogik faoliyat, ijtimoiylashuv, tarbiya.

Asosiy qism

Maktabgacha ta`lim tizimi bolalar shaxsini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu jarayonda tarbiyachi markaziy o`rin egallaydi. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, bola shaxsining rivojlanishda tarbiya va pedagogik ta`sir yetakchi omil bo`lib xizmat qiladi.

1. Tarbiyachining pedagogik roli

Tarbiyachi - bu nafaqat bilim beruvchi, balki bolani har tomonlama rivojlantiruvchi shaxsdir.

- Bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga oladi
- Rivojlantiruvchi muhit yaratadi
- Faoliyatni to`g`ri tashkil etadi

Ilmiy tadqiqotlarga ko`ra, tarbiyachi tomonidan berilgan yo`naltirish va nazorat bolalarning bilim ko`nikmalarni egallashida muhim ahamiyatga ega.

2. Bolaning aqliy rivojlanishda tarbiyachining o`rni

Tarbiyachi bolalarda, taffakur, nutq, xotira, tasavvur kabi psixik jarayonlarni rivojlantiradi. Ayniqsa, o`yin faoliyati orqali bolalarda bilish jarayoni

faol rivojlanadi. Ilmiy manbalarga ko`ra, aynan o`yin orqali bola atrof – muhitni anglaydi va ijtimoiy tajriba orttiradi.

3. Jismoniy rivojlanishda tarbiyachining roli

Tarbiyachi bolalarning sog`lom o`sishi uchun jismoniy mashqlar, harakatli o`yinlar, gigiyenik ko`nikmalarni shakllantiradi. Jismoniy faoliyat bolaning umumiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi va sog`lom turmush tarzining asosini tashkil etadi.

4. Ijtimoiy va ma`naviy rivojlanish

Tarbiyachi bolalarni jamiyatga moslashishiga, muloqat qilishiga, axloqiy qadiryatlarni o`rganishga yo`naltiradi. Shuningdek, ota – onalar bilan hamkorlikda ishlash bolalarning ijtimoiy rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Tarbiyachining shaxsiy namunasining ahamiyati

Bola ko`proq katalarga taqlid qiladi. Shu sababli tarbiyachining nutqi, muomilasi, xulq – atvori bolaga bevosita ta`sir qiladi. Tarbiyachi bolalar uchun namuna bo`lib hizmat qiladi.

Tahlil

Tarbiyachining bolalar rivojlanishidagi roli ko`p qirrali va murakkab jarayon hisoblanadi. Ilmiy – pedagogik tahlilar shuni ko`rsatadiki, maktabgacha yosh davri – shaxs shakllanishining eng muhim bosqichi bo`lib, aynan shu davrda bola asosiy hayotiy ko`nikmalarni egallaydi. Tahlil natijalari shuni ko`rsatadiki, tarbiyachi bolalar rivojlanishida nafat bilim beruvchi, balki yo`naltiruvchi, motivator va tarbiyaviy ta`sir ko`rsatuvchi asosiy shaxs hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, tarbiyachi bolalar rivojlanishida hal qiluvchi rol o`ynaydi. U nafat bilim beruvchi, balki bolani har tomonlama rivojlantiruvchi, ijtimoiy hayotga tayyorlovchi shaxsdir. Zamonaviy ta`lim tizimida tarbiyachining kasbiy mahorati va pedagogik yondashuvi bolalarning barkamol avlod bo`lib voyaga yetishida asosiy omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdula Avloniy – turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent
2. O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim vazirligi – Maktabgacha ta`limga oid davlat talablari va dasturlari.
3. Jean Piaget – Bolalar tafakurining rivojlanishi
4. Lev Vygotsky – Psixologiya rivojlanish nazariyasi
5. Pedagogika va psixologiya bo`yicha zamonaviy o`quv qo`llanmalar va ilmiy maqolalar